Qayd etilgan ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish samaradorligi barcha yo'nalishlarda bir xil emas. Masalan, kameral soliq tekshiruvlar raqamlashtirish natijasida 2022-yilda tekshiruvlar 2021-yilga nisbatan 23 foizga kamaygan va samaradorlik 17,7 foizga oshgan. Ammo soliq audit tadbirlari 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 2,64 barobarga ko'paygan, uning samaradorligi ko'rsatkichi 17,3 foizni tashkil etgan xolos. Shuningdek, elektron va interaktiv xizmatlar soni, ularning soliq ma'muriyatchiligi elementlarini qamrab olishi darajasi o'sishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, boqimanda qarzdorlik, soliq qonunchiligini buzilishi ko'payib, tekshiruvlar samarasi past bo'lib qolmoqda. Shu bois R.A. Petikova, Y.A. Grigorevalarning soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish samaradorlik ko'rsatkichlari 100 foiz bo'lishini ta'minlanadi, degan fikriga to'liq qo'shilib bo'lmaydi.

Soliq majburiyatlari va uni ijrosi masalalari ilmiy adabiyotlarda ko'plab muhokama qilinmoqda. Soliq majburiyatlari ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz ushbu masalada ham yagona to'xtamga kelinmaganligini ko'rsatmoqda. Xususan, bir guruh olimlar soliq huquqi va majburiyatlari tizimini uch guruhga, ikkinchi guruh olimlar esa uni to'rt guruhga bo'lishni taklif etmoqda. S.Y. Bojenok, E.P. Antipova kabi bir guruh olimlar soliq majburiyatlarini mustaqil tur sifatida e'tirof etishni rad etib, uni ma'muriy javobgarlik kabi bir xil huquqiy xususiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Ikkinchi guruh olimlar buning teskarisini ta'kidlaydilar, chunki, birinchi navbatda, soliq majburiyati o'ziga xos xususiyatlarga, o'z huquqiy bazasiga, ya'ni qonunchiligiga, obyekt va subyektlariga, soliq to'lovchi, soliq organiga ega ekanligini ta'kidlab, uni alohida majburiyat turi sifatida e'tirof etadilar.

Fikrimizcha, soliq majburiyati va uni bajarishning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati davlatning o'z vazifalarini to'liq va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar soliq to'lashdan bo'yin tovlash davlatning soliq tizimi bilan bir vaqtda paydo bo'lgan va parallel ravishda rivojlanganligini ko'rsatadi. Albatta, soliq munosabatlari rivojlanishining turli bosqichlarida soliqqa oid huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasi turlicha baholanadi. Shu sababli soliq to'lovchilarning majburiyatlari, vazifalari, soliqdan bo'yin tovlash uchun belgilanadigan jazo turlari va miqdorlari davlatlar tomonidan liberallashtirib borilgan.

²¹Soliq.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi (2023 yil 24 sentyabr holatiga).

²²Soliq.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Soliq munosabatlarini tartibga solish mexanizmlarining tarixiy rivojlanishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida:

solliq majburiyatlari va uning ijrosini tartibga solish mezonlari jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liqligi;

solliq yukini kamaytirish aholi farovonligini oshirishi;

solliq organlari va solliq to'lovchilar o'zaro hamkorlik tamoyili solliq majburiyatlari ixtiyoriy bajarish darajasini ta'minlashga xizmat qilishi aniqlandi.

Mamlakatimiz solliqqa tortish va solliq munosabatlarini tartibga solish tizimi 30 yildan ortiq tarixga ega bo'lishiga qaramasdan, solliq tizimi samaradorligi hamon yetarli darajada emas.

Tadqiqotlarimiz buning asosiy sababi solliq tizimi uzoq vaqt davomida asosan davlatning fiskal vazifalarini bajarishga qaratilgan repressiv xarakterga egaligini ko'rsatmoqda. Ushbu davrda solliq organlarining ustuvorligi, ularning nazorat faoliyati huquq va vakolatlari yuqori bo'lib, solliq to'lovchilarning manfaatlari deyarli hisobga olinmagan. Natijada boqimanda qarzdorlikning o'sishi, solliq huquqbuzarliklari sonining ko'payishi, solliq to'lovchilar yashovchanlik darajasi pasayishi va yashirin iqtisodiyot hajmi o'sishi kabi salbiy hodisalar ko'paygan.

Solliq ma'muriyatchiligiga yangidan kirib kelayotgan solliq mexanizmlaridan biri o'zaro kelishuv yoki e'tiborsizligi natijasida solliq bazasi va byudjetga tushadigan solliqlar miqdorini kamaytirishni oldini olish maqsadida xo'jalik jarayonlari natijasida to'lanmay qolinadigan solliqlar yukini byudjet hisobidan qoplash tizimiga barham berishdir. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Solliq kodeksi 15-moddasida solliq to'lovchiga lozim darajadagi ehtiyotkorlikni ko'rish majburiyati belgilandi. Ushbu majburiyatni solliq to'lovchi zimmasiga yuklatilishi xorijiy tajribada sinovdan o'tgan va maqbul amaliyot bo'lib, belgilangan talabni bajarmaslik oqibatida solliq to'lovchi solliq bazasidan kamaytirishi mumkin bo'lgan xarajatlarni chegirish huquqidan mahrum bo'ladi. Solliq ma'muriyatchiligiga kiritilgan mazkur mexanizm ham repressiv xarakterga ega. Shu bois tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra uning repressiv xususiyatini kamaytirish maqsadida ushbu talabni bajarish uchun zarur ma'lumotlar elektron bazasini shakllantirish va ulardan foydalanish tartiblarini qonunosti me'yoriy hujjatlar bilan belgilab qo'yish va uni solliq organlari vakolatidan davlat xizmatlari ko'rsatish agentligiga o'tkazish zarurligi taklif etilgan. Hozirda ushbu munosabatni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatning qabul qilinganligi shu boradagi nizolarni kamayishiga olib keldi. Ammo solliq bazasi ma'lumotlarini shakllantirish vakolati hamon manfaatdor solliq organida qolgan. Bu idoraviy manfaat nuqtai nazaridan solliq organiga ustuvor huquq beradi.

Dissertatsiya uchinchi bobida **“O'zbekistonda solliq munosabatlari tizimini tartibga solish amaliyoti va muammolari”** o'rganilgan. Mazkur bobda solliq nazoratining rolini oshirish, yashirin iqtisodiyot va uni tartibga solishda solliq ma'muriyatchiligining roli hamda solliq xizmati organlari faoliyati samaradorligi va uni baholash tizimini takomillashtirish tahlil qilingan. Solliq nazoratini tashkil etishni takomillashtirish masalalari bo'yicha takliflar berilgan va ilmiy xulosalar qilingan.

Xalqaro valyuta fondining tadqiqotlarida yashirin iqtisodiyotning ulushi uzoq vaqtdan beri mamlakatimizda YaIMning 32-52 foiz darajani tashkil etgani aniqlangan²³. Shu sababli “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan “yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq bazasini qo‘shimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish” vazifasi belgilanib, uning ijrosini ta‘minlash yashirin iqtisodiyotni kamaytirishning ilg‘or xorij tajribalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishni talab qiladi.

Yashirin iqtisodiyot ham kishilik jamiyati taraqqiyotining mahsuli hisoblanib, uning hajmi o‘zgarishi davlat soliq siyosati hamda soliq ma‘muriyatchiligi optimalligiga bog‘liq hisoblanadi. Fikrimizcha, yashirin iqtisodiyotni paydo bo‘lishi, rivojlanishi hamda yalpi ichki mahsulotdagi darajasiga qonunchilik, jamiyat a‘zolari moliyaviy manfaatleri, ular hajmi, fiskal siyosatda ma‘muriy bosim va soliq yukining yuqoriligi ta‘sir etadi.

Hozirda olimlar tomonidan yashirin iqtisodiyot ko‘lamini hisoblashning ko‘plab usullari va metodologiyalari taklif qilingan. Ushbu yo‘nalishni o‘rgangan olimlar S.Y. Barsukova, J.B. Tumunbayarova norasmiy bandlik, E.O. Dmitriyeva, E.V. Drobot - yashirin iqtisodiyotning turli jihatlarini, A.A. Maga, V.Y. Burov, A.K. Xudaynazarov - kichik biznes sohasida yashirin iqtisodiy faoliyat, makrodarajada yashirin iqtisodiyot ko‘lamini aniqlash muammolari, M.N. Rudenko, D.Y. Fedotov – korrupsiya va yashirin iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik, A.A. Pomulev, U.H. Abdug‘aniyevlar - yashirin iqtisodiyot bilan bog‘liq risklar, N.N. Xanchuk yashirin faoliyat sharoitida kreditlash masalalarining nazariy va amaliy jihatlarini ko‘rib chiqadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasida norasmiy iqtisodiyot va uning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha qo‘llaniladigan chora-tadbirlar turlicha hisoblanadi. Mamlakatimizda norasmiy iqtisodiyot rivojlanishiga qarshi kurashishda qo‘llanib kelinayotgan chora-tadbirlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- pul-kredit siyosatini optimallashtirish;
- biznesni tashkil etish va yuritishni soddalashtirish;
- solliq yukini pasaytirish;
- huquqbuzarlik uchun jazo choralarini kuchaytirish.

Jahon tajribasida yashirin iqtisodiyot hajmini aniqlash qo‘llaniladigan usullarni axborot manbalarni qo‘llanilishiga ko‘ra, bevosita va bilvosita usullarga, guruhga bo‘lish mumkin. Shundan ko‘p foydalaniladigan usul E.Feyg tomonidan ishlab chiqilgan “Tranzaksiya” metod hisoblanadi. Ushbu usulda tranzaksiyalar hajmi va YaIMning rasmiy hajmida doimiy bog‘liqlik mavjudligi bo‘yicha farazlar mavjudligi asosida natijalarni pul nazariyasining Fisher tenglamasi yordamida aniqlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda ham yashirin iqtisodiyot ulushini aniqlash tartiblari O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021-yil 30-apreldagi 15-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik

²³The World Bank xalqaro valyuta jamg‘armasi hisoboti.

baholash bo'yicha uslubiy nizom"da belgilab qo'yilgan. Tadqiqotlarimiz davomida mazkur Nizom va xorijiy mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan usullar yordamida soliq ma'muriyatchiligi bilan bog'liq holatlarda yashirin iqtisodiyotni aniqlash uslubiyotini takomillashtirish masalalari o'rganildi.

Amaliyotda xizmatlar ko'rsatish sohasida jismoniy shaxslar bo'yicha yashirin iqtisodiy faoliyat ulushini statistik baholash quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$V_n = V_m * L_{ns}(1); L_{js} = \frac{L_{rs}}{W_{ru}} * 100\% (1); L_{ns} = L_{js} * L_{rs} \quad (2)$$

Xizmat ko'rsatish sohasida yashirin iqtisodiyotni aniqlashning ushbu usubiyotida yashirin xizmatlar hajmini aniqlashda chalkashliklar yuzaga keladi. Chunki jami mehnatga layoqatli aholining qancha foizi ushbu yo'nalishda faoliyat olib borishi (L_{ns}) va jami xizmatlar ko'rsatish hajmini aniqlash yo'llari ko'rsatilmagan. Tadqiqotlar natijasida ushbu uslubiyotni quyidagi mazmunda takomillashtirish taklif etildi. Jami mehnatga layoqatli aholi sonini aniqlash:

$$X_{ba} = M_{la} - (L_{ns} + L_{js}) \quad (3)$$

Xizmat ko'rsatish sohasidagi yashirin va rasmiy xizmatlar hajmini aniqlash:

$$V_{ns} = V_{rs} * V_m \quad (4)$$

Hisobot davrida yashirin iqtisodiy sektorga to'g'ri keladigan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini aniqlash:

$$V_n = (X_{ba} - L_{ns}) * V_m \quad (5)$$

Soliq tekshiruvlar asosida yashirin iqtisodiyot hajmini QQS misolida quyidagi formula asosida aniqlash tavsiya etilgan:

$$S_q = C_j - C_a - C_k \quad (6)$$


Fikrimizcha, yashirin iqtisodiyot hajmini soliq tekshiruvlar asosida aniqlashning qo'llanilayotgan ushbu uslubiyotida qo'shimcha hisoblangan QQS miqdoridan qayta ko'rib chiqish uchun berilgan miqdorning chegirilishi munozarali hisoblanadi. Chunki birinchidan, ushbu arizada keltirilgan qo'shimcha hisoblangan qancha miqdordagi QQSning soliq to'lovchi foydasiga hal etilishi noma'lum holat hisoblanadi. Ikkinchidan, jami hisoblangan qo'shimcha QQSning kamaygan miqdori keyingi ko'rsatkichi (C_k) chegirilmoqda. Bunday holatda bir miqdor ikki marta kamaytirilishiga sabab bo'ladi. Shu sababli ushbu uslubiyot amaliyotdagi qo'shimcha hisoblangan QQSdan qayta ko'rib chiqish uchun berilgan qismi ko'rsatkichi o'rniga uning sud qarori bilan e'tirof etilgan nizoli qismini chegirish tavsiya etiladi:

$$S_q = C_j - C_n - C_k \quad (7)$$

Mazkur uslubiyotlarni tavsiya etilayotgan tarzda takomillashtirish orqali soliq nazorati amaliyoti asosida yashirin iqtisodiyot hajmini real aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Soliq ma'muriyatchiligi jarayonlarini avtomatlashtirish, joriy vaziyatni intellektual tahlil qilish, soliq to'lovchilar faoliyati monitoringi, soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasidan zarur ma'lumotlarni olish

imkonini berdi. Soliq xizmati organlarining nazorat faoliyatiga baho berishda hozirda tekshiruv natijasida byudjetga qo‘shimcha hisoblangan soliqlar mezon ko‘rsatkichi hisoblanadi. Lekin amaliyotda byudjetga hisoblangan barcha qo‘shimcha soliqlar to‘liq undirilmaydi. Fikrimizcha, soliq xizmati organlari faoliyati natijasining sifat ko‘rsatkichlaridan biri qo‘shimcha hisoblangan soliqlarni undirish darajasi hisoblanadi. Kameral nazorat natijasida 2020-2022-yillarda byudjet va maqsadli davlat jamg‘armalariga hisoblangan qo‘shimcha soliqlarning o‘rtacha 93,3 foizi byudjetga undirilgan (5-rasm).



5-rasm. 2020-2022-yillarda kameral soliq tekshiruvda qo‘shimcha hisoblangan mablag‘lar undirilish holati tahlili²⁴


Tahlillar soliq audit tekshiruvdan kameral soliq tekshiruvi samarali ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli soliq to‘lovchilar bilan munosabatlarni tubdan o‘zgartirish, biznesni yuritish uchun shaffof sxemalar va qonun hujjatlariga muvofiq soliq bazasi bilan bog‘liq zarur ma‘lumotlarni soliq organlariga taqdim etishga tayyor bo‘lgan muhitni shakllantirish zarurdir. Bu esa soliq xizmati organlarining soliq to‘lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi imidjini yaratish va uning darajasini faoliyatni baholash mezoniga aylantirishni talab qiladi. Shu bois A.V. Deminning “soliq ma‘muriyatchiligining ma‘muriy buyruqbozlikka asoslangan nazorat-majburiy tizimidan mijozlarga yo‘naltirilgan xizmat tamoyiliga asoslangan “o‘zaro hamkorlik” modeli o‘tish talab, nizolarni sudgacha hal qilish, o‘zaro ishonch va o‘zaro manfaatli boshqarishga xizmat qiladi”, degan fikriga qo‘shilamiz.

Tadqiqotlarimiz natijasida dunyoning offshor zonalaridagi aktivlar miqdori 1,7 -11,5 trillion AQSh dollari miqdorini tashkil etishi va AQSh byudjeti ofshor zonalar faoliyati natijasida yiliga 100 milliard dollar daromad yo‘qotilishi aniqlandi. «Global Financial Integrity» kompaniyasi tadqiqotlari natijalari har yili

²⁴Soliq qo‘mitasi statistik ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

kapitalning noqonuniy oqimi 1 trillion AQSh dollari miqdorini tashkil etishi va rivojlanayotgan davlatlar byudjeti yiliga 98-106 milliard AQSh dollar, ya'ni ushbu davlatlar umumiy byudjet daromadlarining 4,4 foizini yo'qotilishini ko'rsatgan.

Dunyo amaliyotida transfert narxlar tizimi orqali kompaniya foydasini oshirish maqsadida kompaniyalar soliq yuki kam bo'lgan hududlarda o'zlarining tarkibiy tuzilmalari yoki dillerlik bo'linmalarini tashkil etadi va mahsulotlarni bozor narxidan past miqdorda bo'linmalarga jo'natadi hamda sotadi (6-rasm).



6-rasm. Transfert narxlar maqsadi va harakati sxemasi²⁵

Chizmadan transfert narxlarni qo'llash tizimi "qonuniy" mexanizmlar yordamida byudjet daromadlarini kamayishiga olib kelishini ko'rish mumkin. Shu sababli iqtisodiyoti rivojlangan 60 dan ortiq davlatlarda transfert narxlar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar bo'yicha soliq nazoratini kuchaytirish va aniqlangan holatlarni soliqqa tortishning qonuniy mexanizmlari shakllantirilgan. Masalan, AQSh transfert narxlar bo'yicha iqtisodiy bitimlarni tartibga solishda baholarni taqqoslash usulidan foydalanadi.

Avstriya, Germaniya, Kanada, Niderlandiya, Norvegiya, Shveysariya va Xitoyda esa mahsulotning bozor bahosi transfert narxlarni tartibga solish uchun asos hisoblanadi. Fikrimizcha, soliq monitoring nazorat tizimini qo'llashni rag'batlantirish ushbu yo'nalishdagi nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ishning to'rtinchi bobi "**Soliq munosabatlarini tartibga solishning xorij tajribalari va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish yo'nalishlari**"ga bag'ishlangan. Ushbu bobda soliq ma'muriyatchiligini tashkil etishning xorij tajribalari va uning o'ziga xos xususiyatlari, elektron tijorat bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari hamda raqamli soliq ma'muriyatchiligi va uni takomillashtirish masalalarini ekspert baholash yo'llari

²⁵Muallif ishlanmasi.

o'rganilgan va tadqiq etilgan. Ma'lumki, har qanday mamlakatning soliq siyosati negizi quyidagi o'zaro bog'liq uslubiyotga: soliq tushumlaridan turli darajadagi byudjetlar daromadlarini shakllantirish va mablag'lardan davlat fiskal vazifasini bajarishda foydalanish; soliq mexanizmidan iqtisodiyotni bilvosita tartibga soluvchi mexanizm sifatida foydalanish asoslanishi zarur.

Tadqiqotlar natijasida olimlar tomonidan soliq siyosati optimal hisoblangan va iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda ham soliq munosabatlarini tartibga solishda quyidagi muammolar mavjudligi e'tirof etilgan: soliq tizimining soliq to'lovchilar va samarali soliq boshqaruvi uchun murakkabligi. Xususan:

- soliq to'lashdan bo'yin tovlash yo'llarining paydo bo'lishi;
- daromadlarni individual soliqqa tortish tizimining soliq yukini notekis taqsimlanishiga sabab bo'lishi;
- kompaniyalar va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimidagi keskin farqlar kabi holatlar yuzaga kelmoqda.

Natijada kompaniyalarda mulk shakllarini o'zgartirib soliqlarni kamroq to'lashga harakat qilishi; dividendlarni soliqqa tortishdagi nomutanosiblik hisobiga soliq to'lovchilar o'z mablag'laridan ko'ra bank kreditlarini investitsiyaga yo'naltirishi; soliq tizimlarining to'g'ri soliqlar rolini oshirishga moyillik; soliq tizimi islohotlarida davlatning byudjet daromadlarini ko'paytirish va uni tez shakllantirishga bo'lgan qiziqishi paydo bo'ladi.

Sobiq ittifoq respublikalari davlatlarida soliq ma'muriyatchiligi davlat manfaatiga bo'ysundirilgan bo'lib, soliq munosabatlari ishtirokchilari barcha tizimi subyektlari (moliya, soliq, prokuratura, surishtiruv-tergov va sud organlari)ning asosiy maqsad va vazifalari davlat byudjetiga mablag' undirishga bo'ysundirilgan.

Rivojlangan davlatlarda soliq ma'muriyatchiligini "o'zaro hamkorlik" rejimida amalga oshirilishi soliq qonunchiligi ijrosi va mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Shunday holatni ichki daromadlar xizmati tomonidan soliq to'lovchilarga izchillik, adolatlilik va maxfiylik tamoyillari asosida xizmat ko'rsatayotgan Irlandiyada kuzatish mumkin. Ushbu tamoyillar asosida faoliyat yuritish va ularga og'ishmay amal qilish natijasida hozirda Irlandiya Yevropa ittifoqi davlatlari orasida eng tez rivojlanayotgan va investitsiyalar jalb etilishi bo'yicha yuqori darajada bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi. Investitsiyalar hajmi mamlakatda 2022-yil yakunlari bo'yicha 2021-yilga nisbatan 17,06 foizga o'sgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM bo'yicha Yevropada ikkinchi o'rinni egallaydi va xarid quvvati, iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari darajasi Yevropaning boshqa mamlakatlariga nisbatan 40 foiz yuqori hisoblanadi. Ishchilik darajasi keyingi o'n yillikda 10 foizga kamaygan va hozirda 4 foizni tashkil etadi.

Avstraliya soliq qonunchiligida soliq ma'muriyatchiligi muloqotlarning xolisligi; soliq xizmati xodimlarining xatti-harakatlarining nazorat qilinishi; qabul qilingan qarorlar mazmun-mohiyatini tushuntirish; faoliyatda halollik va professionallikni ta'minlash tamoyillari asosida tashkil etilishi va soliq to'lovchi soliq nizosi bo'yicha sudga arz qilishdan oldin soliq majburiyatini to'liq bajargan

bo'lishi shartligi bilan xarakterlanadi. Sud arizani qanoatlantirgan holda to'plangan soliq summasi foizlar bilan birga soliq to'lovchiga qaytarilishi ta'minlanadi.

Shvetsiyada samarali soliq ma'muriyati tizimi soliq tizimi yaxshi ishlayotgani va soliq organlari qonun hujjatlariga muvofiq o'z vazifalarini bajarayotganiga ishonch hosil qilish tamoyiliga asoslanganligi bilan xarakterlanadi. Buyuk Britaniyada soliq ma'muriyatchiligi adolatlilik, o'zaro hamkorlik va tushunarlilik tamoyillari bilan birga soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati tamoyiliga ham asoslanadi. Soliq ma'muriyatchiligining o'zaro hamkorlik tizimida soliq to'lovchilar soliq organi bilan bitimlar, narxlarni belgilash, foydani taqsimlash, investitsiya loyihalari, boshqa xo'jalik operatsiyalari soliq oqibatlari ular amalga oshirilgunga qadar kelishib olinadi. Bunday holatlar soliq organlari bilan shartnomalar tuzish yoki individual maslahatlar olish bo'yicha murojaatlar asosida amalga oshiriladi. Masalan, Fransiya, AQSH, Shvetsiyada soliq to'lovchi soliq organlaridan rejalashtirilgan bitim bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq oqibatlari bo'yicha dastlabki xulosa so'rash huquqiga ega. Shvetsiyada soliq oqibatlari to'g'risidagi dastlabki xulosa berish maxsus soliq huquqi komissiyasi tomonidan beriladi. Yaponiya soliq ma'muriyatchiligi: qonunga rioya etadigan soliq to'lovchini hurmat qilish; soliq tizimining sodda va qulayligi; soliq to'lovchiga bo'lgan ishonchining jazoga intilishdan ustunligi tamoyillariga tayanadi. Shu sababli Yaponiya dunyoning "eng arzon soliq ma'muriyatchiligi" davlatlari qatoriga kiradi.

Global internet tarmog'idan foydalanish va tarmoq orqali xizmat ko'rsatish tizimi hamda imkoniyatlari o'sishi elektron tijorat orqali savdo aylanmasining o'sishiga ham ijobiy ta'sir etmoqda. Dunyo bo'yicha elektron tijorat aylanmasi hajmi pandemiya sababli 2019-2020-yillarda joriy etilgan karantin cheklovlariga qaramasdan 2014-yilga nisbatan qariyb 4 barobarga o'sgan. Stefani Shevale dunyo bo'yicha elektron tijorat aylanmasi to'rt yilda 50 foizga o'sib, uning hajmi 2025-yilda 7,7 milliard AQSh dollari miqdoriga etishini qayd etadi²⁶.

Tahlillar elektron tijorat aylanmasi o'sishiga mos ravishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar yordamida amalga oshirilgan tijorat jarayonlarining hisobi va soliqqa tortish masalasi ham global iqtisodiyotning dolzarb muammolariga aylanib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Ushbu muammolarni o'rgangan R.O. Blumers (R.O. Bloemers), L.Boshurberg (L.Bochurberg), S.Vatanabe (S.Watanabe), R.A. Vestin (R.A. Westin), P.Kobb (P.Cobb), S.J. Kobrin (S.J. Kobrin), F.Lorents (F.Lorentz), A.Nellen (A.Nellen), K.Rid (C.Reed), T.L. Mezenburg (T.L. Mesenbourg) va D.Xardesti (D.Hardesty) kabi olimlar elektron tijoratni soliqqa tortish uning ishtirokchi davlatlari byudjetiga tushadigan daromadlar miqdoriga salbiy ta'sir etishini qayd etgan.

Yevropa ittifoqi (YI) davlatlari ekspert komissiyasi elektron tijorat faoliyati va uni soliqqa tortish masalalarini o'rganishlari natijasiga asosan 1996-yilda e'lon qilingan hujjatida elektron tijorat bo'yicha savdo bitimlari o'sishi mavjud soliqqa tortish tizimiga putur etkazishi va uni oldini olish maqsadida QQS o'rniga "bayt

²⁶https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-ru.ru.c70ce2eb-63081e1e-ef60dd18-74722d776562/https/www.statista.com/aboutus/our-research-commitment/1654/stephanie-chevalier

solig‘i” joriy etishni taklif etgan. 2015-yilda QQS bo‘yicha soliq ma‘muriyatchiligini soddalashtirish maqsadida Mini one Stop Shop (MOSS) mexanizmi joriy etilgan. Lekin ushbu mexanizmni ixtiyoriy xarakterga ega ekanligi sababli to‘liq ishlamaydi va EI ko‘p davlatlari ushbu mexanizm ikkiyoqlama soliqqa tortishga sabab bo‘lishi hamda soliq auditi o‘tkazish tartiblari kelishilmaganligi bois uni qo‘llamaydi.

Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmlari sifatida Fransiyada 2018-yilgi byudjet loyihasida internet reklama va e‘lonlar uchun 1 foizlik soliq rejalashtirilgan, Buyuk Britaniyada intellektual mulkdan noqonuniy foydalanuvchilar undiriladigan “qaroqchilik solig‘i” joriy etilgan²⁷. Shuningdek, dasturiy mahsullardan xizmat sifatida foydalanish (software as a service-SaaS) amaliyotining rivojlanishi elektron tijoratni soliqqa tortishning muammolaridan yana biri sifatida e‘tirof etiladi²⁸. Ushbu amaliyotda bulutli bazadagi dasturiy mahsulot ofshor zonalardagi kompaniyalarga foydalanish uchun berilishi yoki ofshor zonadagi, imtiyozli soliq rejimli mamlakatdagi “virtual xaridor” yordamida xizmat ko‘rsatilishi hisobiga byudjetga to‘lanadigan soliqlar miqdori kamaytiriladi.

Rossiya Federatsiyasida raqamli soliq ma‘muriyatchiligini amalga oshirish me‘yorlar belgilangan bo‘lib, ular elektron tijorat va xizmatlarni soliqqa tortish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga xizmat qilmoqda. Qozog‘iston Respublikasi soliq qonunchiligida 2018-yilning 1-yanvardan buyon o‘z faoliyatini onlayn-do‘kon yoki internet-maydonlarda yuritayotgan tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslar bilan elektron savdo qilishdan olingan daromad xo‘jalik subyekti yillik yalpi daromadining 90 foizini tashkil etgan tadbirkor soliqdan ozod etilgan. Belarus Respublikasi soliq qonunchiligida 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab xorijiy kompaniyalar elektron xizmatlardan QQS undirilishi, elektron tijoratni amalga oshiruvchi xo‘jalik subyektlari soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi asosida alohida soliq stavkalari qo‘llanilishi belgilangan. Ozarbayjon Respublikasi soliq qonunchiligi 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab elektron tijorat uchun 18 foizlik stavkada qo‘shimcha qiymat solig‘i solish tartibi joriy etilgan. Germaniya, Ispaniya, Italiya qonunchiligida elektron tijorat subyekti sifatida ro‘yxatdan o‘tmay faoliyat yuritayotgan shaxslarga nisbatan katta miqdorda jarimalar qo‘llash hamda mol-mulkni musodara qilinishi ham nazarda tutilgan.

Elektron tijorat va xizmatlarni soliqqa tortishning Xitoy tajribasi mukammalligi bilan xarakterlanadi. 2010-yilda Xitoy davlati internet xizmatlar ko‘rsatish uchun majburiy tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning tartibi joriy etilgan. Elektron xizmatlar subyekti davlat ro‘yxatidan o‘tganligi nufuzli saytlarda e‘lon qilinishi ham shart hisoblanadi. Shuningdek, Xitoy davlati transchegaraviy aloqalar bo‘yicha hamkor davlatlar bilan soliqqa tortish maqsadida doimiy muloqot tizimini ham yo‘lga qo‘ygan.

²⁷Пекарская, А. Ю. Особенности контроля за налогообложением в условиях развития цифровой экономики // Белорусский экономический журнал. – 2018. – № 1. – С. 84–96.

²⁸Рамазанов Т. Некоторые аспекты налогообложения в цифровой экономике // Вестник Университета им. О.Е. Кутафина (МГЮА). – 2016. – №6. – С.137–141.

O‘zbekiston soliq qonunchiligi elektron tijorat va xizmatlarni soliqqa tortish, soliq to‘lovchilarni hisobga olish hamda soliq bazasini aniqlashning alohida me‘yorlarini belgilamaydi. Mamlakatimizda ushbu toifadagi subyektlar toifasini aniqlash va imtiyozli stavkada soliqqa tortish uchun elektron tijoratning mahalliy subyektlari haqidagi ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan yagona elektron ma‘lumotlar bazasi –milliy reyestr tizimi joriy etilgan. Mamlakatimizda elektron tijorat subyektlarini milliy reyestriga kiritish bo‘yicha belgilangan mezonlar subyektning faoliyat turi bo‘yicha tavsiflanadi. Ushbu mezonlar asosida milliy reyestriga kiritilgan hamda tovarlar (xizmatlar) elektron savdosini amalga oshiradigan soliq to‘lovchilar foyda solig‘ini 7,5 foizlik stavka bo‘yicha to‘laydilar. Aylanmadan soliq to‘lovchi bo‘lgan elektron tijorat subyektlari esa soliq bazasi hisobidan 2 foizli stavkada soliq to‘laydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-noyabrdagi PQ-14-sonli qarori bilan elektron tijorat faoliyati subyektlarini qo‘llab-quvvatlash uchun 2024-yil 1-yanvarga qadar raqamli ekotizimga integratsiyalashgan elektron tijorat platformalari operatorlari uchun foyda solig‘i stavkasi 50 foizga kamaytirish, elektron tijorat ishtirokchilarining milliy reyestriga kiritilgan yoki kiritilmaganligidan qat’i nazar, foyda solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha pasaytirilgan soliq stavkalar bo‘yicha soliq to‘lash tartiblari belgilandi.

Tadqiqotlarimiz elektron tijorat subyektlar faoliyatini soliqqa tortish va soliq ma‘muriyatchiligini tashkil etishda quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda:

elektron tijorat subyektlarini soliqqa tortish bo‘yicha qonunchiligining mukammal emasligi;

elektron tijorat subyektlarida soliq nazorati tadbirlarini ishlab chiqilmaganligi;

soliq to‘lovchi maqomini belgilash tartiblarini aniq belgilanmaganligi;

soliq huquqiy maqomini belgilashning noaniqligi;

elektron tijorat mahsulotlari tasniflari ishlab chiqilmaganligi;

soliq to‘lovchi maqomi va soliq stavkasini belgilashga turlicha yondafshuv mavjudligi;

ikkiyoqlama soliqqa tortilish holatlariga yo‘l qo‘yilishi.

Elektron tijorat subyektlari faoliyati soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijalarida:

raqamli tijorat va xizmatlar mahsulotlari tasnifini ishlab chiqish;

raqamli tijorat va xizmatlar uchun qat’i soliq joriy etish;

raqamli tijorat va xizmatlar bo‘yicha aylanmalar subyektlarini aniqlash imkoniyati bo‘lmagan hollarda uning iste‘molchisini soliq to‘lovchi sifatida e‘tirof etish tartibini joriy etish;

raqamli tijorat va xizmatlar aylanmasini nazorat qilish maqsadida bulutli elektron raqamli imzo ishlab chiqish hamda qonun hujjatlarida iste‘molchini soliq to‘lovchi sifatida e‘tirof etiladigan holatlarni belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq.

Elektron tijorat subyektlari faoliyati soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish elektron tijorat va xizmatlar ko‘rsatish hajmining o‘sishi, soliq bazasi va miqdorini

ko'payishi hamda qonunchilik ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va davlat byudjeti barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bois mazkur tadqiqotdan kelib chiqib, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi 7 ta taklif ishlab chiqildi:

soliq va soliqqa tortish jarayonlarida to'liq avtomatlashtirilgan nazorat tizimi (ANT)ni joriy qilish;

soliq xavfini boshqarish va soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilar bilan ishlashni "soliq-bank-iste'molchi" integratsiyalashgan tizimni yanada takomillashtirish asosida onlayn rejimida tashkil etish;

soliq to'lovchilarga kompleks xizmatlar ko'rsatish va ular bilan soliq organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini ta'minlovchi yagona (sodda) dasturiy ta'minotni ishlab chiqish;

soliq jarayonlarini avtomatlashtirish asosida boshqaruv organlarida xodimlar sonini kamaytirish;

soliq hisobotlarini tuzish majburiyatini soliq organlari zimmasiga o'tqazish;

barcha soliq to'lovchilarni soliq monitoring tizimiga o'tqazish;

raqamli soliq auditini joriy etish.

Fikrimizcha, mazkur chora-tadbirlar soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar davomida ushbu takliflarni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida "ekspert baholash" usulidan foydalanib, ekonometrik tadqiqotlar amalga oshirildi. Ekspert baholashda "mutaxassislar fikrining kelishuvchanligi" juda muhimligi sababli uning darajasini baholash uchun "konkordatsiya koeffitsiyenti" dan foydalanildi:

$$W = \frac{12 \times S}{n^2 \times (m^3 - m)} \quad (8)$$

bu erda: W – konkordatsiya koeffitsiyenti; n – jalb etilgan ekspert - mutaxassislar soni; m – obyektlar soni; S – konkordatsiya koeffitsiyentidagi miqdoriy kattaligi. Konkordatsiya koeffitsiyentidagi miqdoriy kattaligi (S) quyidagicha aniqlanadi:

$$S = \sum_{i=1}^m \left(\sum_{s=1}^n r_{is} - \bar{r} \right)^2 \quad (9)$$

bu yerda: r_{is} – i -chi obyektga s -chi ekspert tomonidan berilgan baho.

Konkordatsiya koeffitsiyentining qabul qilish qiymatiga qarab ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajalarini aniqlashda Xarringtonning verbal - sonli shkalasida foydalaniladi. Bundan tashqari, aniqlangan konkordatsiya koeffitsiyentining ahamiyatligini baholash uchun Pearsonning moslik χ^2 - mezonini qabul qilinadi. χ^2 - taqsimot $K = n-1$ erkinlik darajasi bilan quyidagi qiymatni qabul qiladi:

$$\chi^2 = \frac{12 \times S}{nm(m+1) - \frac{1}{m-1} \sum_{i=1}^n T_i} \quad (10)$$

Agar $\chi_{haq}^2 > \chi_{his}^2$ bo'lsa, ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi o'rindir,

aks holatda bunday kelishuvchanlik ahamiyatsiz bo‘lib chiqadi. “Ekspert baholash” usulini qo‘llashda ekspertlarga quyidagi savol qo‘yildi: “Istiqbolda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlardan qaysi biri samarali hisoblanadi”. Ekspertlar tomonidan mazkur savolga javob topish maqsadida “5 ballik baholash shkalasi” qabul qilindi va ular tomonidan ustuvor yo‘nalishlarga quyidagi ballar belgilab berildi (2-jadval).

2-jadval

Istiqbolda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarga ekspertlar tomonidan ko‘rsatilgan ballar

Baholanayotgan ustuvor yo‘nalishlar	Ekspertlar				
	1	2	3	4	5
Soliq va soliqqa tortish jarayonlarida to‘liq avtomatlashtirilgan nazorat tizimi (ANT)ni joriy qilish	5	4	5	5	5
Soliq xavfini boshqarish va soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilar bilan ishlashni “soliq-bank-iste’molchi” integratsiyalashgan tizimni yanada takomillashtirish asosida onlayn rejimida tashkil etish	4	5	4	4	3
Soliq to‘lovchilarga kompleks xizmatlar ko‘rsatish va ular bilan soliq organlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvini ta’minlovchi yagona (sodda) dasturiy ta’minotni ishlab chiqish	4	4	5	4	4
Soliq jarayonlarini avtomatlashtirish asosida boshqaruv organlarida xodimlar sonini kamaytirish	5	4	5	4	4
Soliq hisobotlarini tuzish majburiyatini soliq organlari zimmasiga o‘tqazish	3	2	1	2	3
Barcha soliq to‘lovchilarni soliq monitoring tizimiga o‘tqazish	4	3	2	3	4
Raqamli soliq auditini joriy etish	5	4	5	5	4

Tahlil natijalarining ko‘rsatishicha, yo‘nalishlar bo‘yicha ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi (W), ya’ni konkordatsiya koeffitsiyenti 0,71 qiymatni tashkil etgani holda ushbu qiymat Xarringtonning verbal - sonli shkalasi bo‘yicha 4-chi tartib raqamli oraliqqa to‘g‘ri keldi. Ya’ni kelishuvchanlik yuqori darajada ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, konkordatsiya koeffitsiyentining ahamiyatliligi Pearsonning moslik χ^2 – mezoni bo‘yicha baholandi.

Baholash natijalariga ko‘ra, $\chi_{haq}^2 = 21,18 > \chi_{his}^2 = 12,59159$ teng bo‘lib, ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi o‘rinlidir. Darajalar yig‘indisini olish asosida ko‘rib chiqilayotgan parametrlarning vazn ko‘rsatkichlarini hisoblash mumkin.

So‘rov matritsasi $s_{ij} = x_{max} - x_{ij}$ formulasi bo‘yicha o‘zgartirilgan darajalar matritsasiga aylantiriladi (3-jadval), bu yerda $x_{max} = 5$

O'zgartirilgan darajalar matritsasi²⁹

Obyektlar ↓ / Ekspertlar →	1	2	3	4	5	Jami	Qaror vazni
1	0	1	0	0	0	1	0,02632
2	1	0	1	1	2	5	0,1316
3	1	1	0	1	1	4	0,1053
4	0	1	0	1	1	3	0,07895
5	2	3	4	3	2	14	0,3684
6	1	2	3	2	1	9	0,2368
7	0	1	0	0	1	2	0,05263
Jami						38	1

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar natijasida berilgan takliflardan "Soliq va soliqqa tortish jarayonlarida to'liq avtomatlashtirilgan nazorat tizimi (ANT)ni joriy qilish" yo'nalishi bo'yicha ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi yuqori ekanligi tasdiqlandi hamda boshqa yo'nalishlarga nisbatan mazkur yo'nalishning ustuvorligi ilmiy asoslandi.

XULOSA

Dunyoning iqtisodiyoti barqaror davlatlari rivojlanish jarayonlari tahlili jamiyat barcha bo'g'inlarida doimiy ravishda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi o'rganilib borilishi hamda tadqiqotlar natijalari asosida izchil islohotlar amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatmoqda. Har qanday davlatning byudjet-soliq siyosati xazinaga mablag' to'plash bilan birga iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga ham xizmat qilishini ta'minlashi zarur. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligi tashkiliy-uslubiy mexanizmlarini takomillashtirish mavzusida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Soliq ma'muriyatchiligi nafaqat soliq qonunchiligi ijrosini ta'minlashga, balki iqtisodiyotni tartibga solishga ham xizmat qiladigan davlat moliyaviy richagi hisoblanadi. Kishilik jamiyati rivojlanishining barcha bosqichlarida hukumdorlar ham davlat g'aznasiga mablag' to'plashda soliq ma'muriyatchiligidan foydalangan. Shu sababli soliq ma'muriyatchiligi amaliyoti, uni takomillashtirish masalalari doimiy ravishda tadqiqotlar obyekti hisoblanishi va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur.

Soliq munosabatlari - davlat hamda soliq to'lovchilar o'rtasida soliq majburiyatlari va ularning ijrosi bo'yicha paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidan iboratdir. Soliqlar paydo bo'lgandan buyon "oddiy xalq" manfaatini emas, "hukumdor sinflar", keyinchalik esa davlat manfaatiga xizmat qilishga qaratilgan. Soliq munosabatlarida "oddiy xalq"ning o'z

²⁹Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

manfaatini himoya qilishga qaratilgan har qanday harakat turli qarama-qarshilik va zo‘ravonlikka uchragan. Movarouannahr davlati hududidagi Muqanna, Sarbadorlar, Mahmud Yalog‘och, Jizzax qo‘zg‘olonlari sabablari soliq munosabatlarida “oddiy xalq” manfaatini ta‘minlash bo‘lgan. Shu sababli soliq ma‘muriyatchiligi optimal bo‘lishi va uni iqtisodiy rivojlanishga mos ravishda takomillashtirib borish davlatning muhim, ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Soliq huquqiy munosabatlari subyektlari, soliq qonunchiligida belgilangan muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar hamda yuridik shaxslardir. Bir tomondan ular soliq to‘lovchilar, ikkinchi tomondan esa soliq nazorati vakolatlarini amalga oshirish huquqiga ega soliq xizmati organlaridir. Soliq munosabatlar subyektlarini bunday tasniflash soliq munosabatlarini huquqiy tartibga solishni xususiy va davlat tamoyillari nisbati jihatidan taqsimlanishini ifodalaydi. Ushbu taqsimlanishi o‘zaro hamkorlik va manfaatdorlik tamoyillariga asoslanishi zarur hisoblanadi. Chunki ushbu tamoyillarning buzilishi iqtisodiyot barqarorligini buzilishi bilan bog‘liq salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqot natijasida shakllantirilgan xulosalar asosida, soliq ma‘muriyatchiligi tashliliv-uslubiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ilmiy tadqiqotlar natijalari o‘rganilgan iqtisodiyot yo‘nalishi samaradorligini oshirishga xizmat qilishni ta‘minlashi zarur. Aks holda tadqiqot natijasi ahamiyatsiz bo‘ladi. Shu sababli ilmiy tadqiqotlar vazifalarini bibliometrik tahlillar natijasi bo‘yicha shakllantirish tavsiya etiladi.

2. Soliq ma‘muriyatchiligining yangi institut bo‘lgan soliq to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlikni undirishda garov va kafillik mexanizmlaridan foydalanish amaliyoti o‘tgan davrda past darajani tashkil etgan. Ushbu mexanizm to‘liq ishlashi uchun garov va kafillik mexanizmini qo‘llash uslubiyotini amaliyotga joriy etishda soliq to‘lovchilarning yashovchanlik darajasi me‘zon bo‘lishi maqsadga muvofiq.

3. Soliq to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlik, bo‘nak to‘lovlarini kechiktirish va bo‘lib-bo‘lib to‘lash tartibini haddan ortiq ko‘p bosqichlilik va muddati uzoqligi mazkur tartib ahamiyatini pasaytirishi sababli uni takomillashtirib, uch bosqichli tizimga o‘tkazish zarur hisoblanadi.

4. Soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik samaradorligini oshirish, soliq ma‘muriyatchiligida ma‘muriy bosimni kamaytirish maqsadida soliq nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish tartiblarini belgilashni Vazirlar Mahkamasi vakolatiga o‘tkazish asoslandi.

5. Soliq nazoratining yangi institut soliq monitoringi bilan soliq to‘lovchilarni qamrab olish tizimini mamlakatimizda samarali ishlashini ta‘minlash maqsadida soliq monitoringi bo‘yicha cheklovlarni bekor qilish maqsadga muvofiqlik taklif qilindi.

6. Soliqqa oid huquqbuzarliklari uchun 2 xil jazo qo‘llashning oldini olish maqsadida hisobotlarni belgilangan muddatlarda taqdim etmaganlik holatlari uchun moliyaviy jazo chorasi qo‘llash tartibini bekor qilish asoslandi.

7. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish faoliyati yo‘nalishlarini aniq belgilash va tashkiliy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida qurilish va xizmatlar bo‘yicha yashirin iqtisodiyot ulushini bandlik ko‘rsatkichlari hamda soliq tekshiruvlari natijalari asosida yashirin iqtisodiyotni baholash uslubiyotlaridan foydalanishni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

8. Soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik samaradorligini oshirish maqsadida soliq hisobotlarini tuzish majburiyatini soliq to‘lovchidan soliq organiga o‘tkazish taklif qilindi.

9. Transfert narxlar nazorati samaradorligini oshirish uchun xorijiy ilg‘or davlatlar soliq ma‘muriyatchiligi uslubiyotidan foydalanishni joriy etish taklif etiladi.

10. Elektron tijorat aylanmasi bo‘yicha soliq nazoratini takomillashtirish maqsadida davlatlararo xalqaro shartnomalarga elektron tijorat aylanmasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ayirboshlash to‘g‘risida alohida modda kiritish va elektron tijorat aylanmasini soliqqa tortishda iste‘molchilarni aniqlash tartibini joriy etish tavsiya etildi.

11. Soliq ma‘muriyatchiligining yangi davr talablari asosida tashkil etish yo‘nalishlarini belgilash maqsadida rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida soliq ma‘muriyatchiligini raqamlashtirish strategiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/10.12.2019.1.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФИСКАЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ ПРИ НАЛОГОВОМ КОМИТЕТЕ

ИБРАГИМОВ БОБУРШОХ БОХОДИР УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ
НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (Doctor of Science)

город Ташкент – 2024 год

Диссертация выполнена в Фискальном институте при Налоговом комитете.
Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательного портала «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант: Исроилов Боходир Ибрагимович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Тошмуродова Буvsара Эгамовна
доктор экономических наук, профессор

Пулатов Дилшод Хакбердиевич
доктор экономических наук, профессор

Тураев Шавкат Шухратович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Самаркандский институт экономики и сервиса

Защита диссертации состоится «29» 01 2024 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, город Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер № 1324). Адрес: 100066, город Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «10» 01 2024 года.
(протокол реестра № 3 от «10» 01 2024 года).




М.П. Эшон
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор


У.В. Гафуров
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

С.К. Худойкулов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях усиления глобализационных процессов в мире повышается значимость обеспечения свободной деятельности субъектов предпринимательства, радикального сокращения вмешательства государственных органов в их деятельность, раннего предупреждения нарушений, повышения эффективности превентивных мер и бюджетно-налоговой политики государства. По данным Международного центра налогов и развития (ICTD), в 23 процентах развивающихся стран одобрена стратегия цифровизации и развития налогового администрирования¹. В условиях глобализации экономик на международном уровне направления реформ, реализуемых в сфере совершенствования налогового администрирования в развитых странах, основаны на принципах снижения административного давления и повышения уровня сотрудничества с налогоплательщиками, а также обеспечения гармонии интересов субъектов налоговых отношений. В результате бюджетных реформ, осуществленных на основе этих принципов, достигается повышение правовой культуры налогоплательщиков и улучшение налоговой дисциплины.

Проводятся множество научных исследований по совершенствованию методологии налогового администрирования в условиях растущей финансовой нестабильности в мире. Оценка эффективности налогового администрирования, повышение уровня собираемости налогов, снижение затрат на сбор налогов, использование фискальных инструментов для снижения уровня теневой экономики, совершенствование налогообложения оборотов электронной коммерции и дальнейшее улучшение сотрудничества между налогоплательщиками и налоговыми органами являются приоритетными направлениями научных исследований в области налогового администрирования.

Большое внимание уделяется повышению эффективности налогового администрирования в обеспечении устойчивого социально-экономического развития Узбекистана. Такие проблемы, как несовершенство системы контроля за трансфертным ценообразованием и неполноценное функционирование механизма налогового мониторинга налогоплательщиков, а также низкий уровень жизнеспособности налогоплательщиков, негативно влияют на эффективность налогового администрирования. Актуальность темы исследования в проведении научных изысканий по повышению эффективности механизмов налогового администрирования определяется тем, что такие задачи, как охват налоговым мониторингом и повышение уровня жизнеспособности налогоплательщиков, а также сокращение размеров теневой экономики за счет совершенствования налогового администрирования, имеют значительное социально-экономическое значение. Изучение вопросов усиления сотрудничества с

¹Данные ICTD.

налогоплательщиками в повышении эффективности взыскания недоимок, содействие расширению охвата налоговым мониторингом, укрепление сотрудничества в налоговой политике, либерализация системы наказаний за налоговые правонарушения и использование фискальных инструментов для сокращения масштабов теневой экономики являются важными задачами для улучшения методики налогового администрирования.

Данное диссертационное исследование в определенной степени направлено на выполнение задач, определенных в указах Президента Республики Узбекистан УП-6098 от 30 октября 2020 года «Об организационных мерах по сокращению теневой экономики и повышению эффективности деятельности налоговых органов», УП-162 от 28 июня 2022 года «О мерах по созданию благоприятных условий для бизнеса в период реформирования налогового администрирования», УП-21 от 10 февраля 2023 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию критериев разделения субъектов предпринимательства на категории, а также налоговой политики и налогового администрирования», УП-158 от 11 сентября 2023 года ««О Стратегии «Узбекистан – 2030»», постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-208 от 15 апреля 2022 года «О дальнейшем совершенствовании межбюджетных отношений и налогового администрирования», ПП-178 от 24 марта 2022 года «О мерах по реализации проекта «Реформа налогового администрирования» с участием Всемирного банка», а также в иных нормативно-правовых актах, направленных на совершенствование системы социального страхования.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирования инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации². Научные исследования по способствованию оптимизации налогового администрирования обеспечению исполнения государственного бюджета и налоговой политики, достижению стабильного экономического роста и занятости населения, легализации деятельности теневого сектора экономики и правильному распределению доходов проводят ведущие университеты и научные центры мира, в том числе, Институт экономики Леви (США), Организация экономического сотрудничества и развития (Organisation for Economic Cooperation and Development); Международный центр налогов и развития (The International Centre for Tax and Development, ICTD, США); Институт финансовых исследований (Institute for Fiscal Studies,

²The International Agricultural Trade Research Consortium (IATRC). The Impact of Pillar II Funding Validation from a Modelling and Evaluation Perspective, Schroeder, Gocht, and Britz 2015, and Economic Research Service (ERS), Agricultural taxation under structural adjustment [2008], Current fiscal issues fiscal monitor: policies for the recovery (2019), Fiscal Monitor: Fiscal Policy from Pandemic to War (2020).

Великобритания); Центр прикладных исследований в области финансов (The Center for advanced research in Finance, CARF, Япония); Japan International Cooperation Agency (JICA, Япония); Корейский институт государственных финансов (The Korea Institute of Public Finance, Корея); The University of Faisalabad (Пакистан); Международный центр европейского образования (Centre International de Formation Européenne (CIFE) Франция); Финансовый университет при правительстве Российской Федерации (Россия).

В результате исследований достигнут ряд научных положений относительно стимулирования экономической деятельности посредством налогов, включая: в 2014-2018 годах Мексика добилась снижения уровня бедности на 5 процентов; обосновано приостановление роста уровня бедности (в Аргентине и Бразилии); выявлено, что этапы, постоянство и волатильность бюджетной политики влияют на государственные расходы; обосновано влияние постоянства и волатильности государственных расходов на рыночную активность предпринимателей и экономический рост (США); в целях создания полноценной цепочки налога на добавленную стоимость разработан механизм учета стимулирования сельского хозяйства посредством налогов; научно обоснованы направления снижения налоговых ставок за использование водных ресурсов при повышении заинтересованности в финансовых результатах сельскохозяйственных предприятий; разработаны пути увеличения инвестиционного потока за счет повышения роли налоговых льгот (Узбекистан).

